

NUTQ – INSON UCHUN MUHIM VOSITA

Babajanova Dildora Xusinbaevna

Alfraganus universiteti Defektologiya yo'nalishi talabasi

Karimova Z.

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq, uning inson hayotidagi ahamiyati, nutq buzilish holatlari, defektologik tahlil, nutq madaniyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, notiqlik, nutq madaniyati, nutqning xususiyatlari, nutqning aniqligi

Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki aloqa o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni.

Nutq. axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat. Agar til aloqa vositasi bo'lsa, nutq aynan shu aloqa jarayonlarining amalga oshirilishidir. Nutq rivojlanishi davrlari quyidagicha: 1) 2 oydan 11 oygacha;

2) 11 oydan 19 oygacha;

3) 19 oydan 3 yoshgacha.

Nutq verbal va noverbal turkumdan iborat. Noverbal nutq turli imo-ishora, mimika, pantomimika, exologik, signifikatsiya, daktilogik (barmoq nutqi) ko'rinishlarga ega. Verbal nutq og'zaki, yozma, monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq), epik (yoyiq), affektiv turlarga bo'linadi.

Tilning (orfografik, fonetik, morfologik, sintaksistik, orfoepik, lingvistik, fleksiv va boshqa) qonuniyatlariga asoslangan holda mazmun-mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotga aylantiruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi. Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi.

Og'zaki nutq jarangdorligi, ta'sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Millat madaniyati, ma'naviyati, fan va texnikasi yutuqlari, san'ati va adabiy merosini avlodlarga yetkazib berishda, millatlararo aloqa o'rnatishda yozma nutqning ahamiyati beqiyosdir.

Nutq madaniyati; nutq odobi —

1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati;

2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi.

1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi:

a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir.

Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi".

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli

soʻzlarning paydo boʻlishi ham oʻzbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan eʼtibor kuchli boʻlganidan darak beradi.

Oʻtgan asrning 20-yillaridan soʻng oʻzbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til meʼyorlariga asoslanadi. Bu meʼyorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Choʻlpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qoʻshdilar.

nutqning adabiy til meʼyor-mezonlariga asoslangan, mantiq ilmi talablariga boʻysungan holda namoyon boʻlishi. Nutq tafakkur va fikrlashda oʻzaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishiga xos shakli, koʻrinishidir.

Nutq madaniyatining asosiy xususiyati uni ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, ravon, toʻgʻri, taʼsirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, adabiy til qonun-qoidalariga toʻliq javob berishi lozim.

Nutq madaniyati yakka shaxslar, chunonchi, maʼruzachi, pedagog, suxandon, davlat va jamoat arbobi, jurnalist, muxbir va shu kabilarning nutqlari orqali namoyon boʻladigan ijtimoiy hodisadir. Insonning intellektual saviyasi, millatning mentaliteti, maʼnaviy boyligi ortib borgani sayin nutq madaniyati ham yuksalib boradi.

Nutq madaniyati nutq soʻzlash, maʼruza qilish, oʻzaro muloqot, savol-javob, davra suhbatlarida oʻzbek adabiy tili boyligidan samarali foydalanish; gʻoyaviy, mafkuraviy, maʼnaviy, tarbiyaviy jihatlarni singdirish; xalq ogʻzaki ijodi, hikmatli soʻzlar, maqollar, kattalar oʻgitlaridan oʻz oʻrnida, meʼyorida foydalanish; nutqning qisqa, aniq-ravshan, teran mazmunli, keng qamrovli boʻlishiga eʼtibor berish; nutq, maʼruza, suhbat oxirida qisqa xulosalar chiqarish; zarurat tugʻilganda tinglovchilar, suhbatdoshlar bilan odob doirasida, vazminlik asosida bahslashish, munozara yuritish kabi xususiyatlarni oʻzida mujassam etmogʻi lozim.

Nutq madaniyati notiqning oldiga ham muayyan talablar qoʻyadi: notiq nutq soʻzlashga oʻz yoshi, ishi, lavozimi, mavqei kabilarni hisobga olgan holda, kamtarona kiyinib chiqishi; nutqni boshlashdan oldin tinglovchilar bilan samimiy salomlashishi; nutq mavzuiga oid savollarga loʻnda, aniq-ravshan, qisqa javob berishi, bilmaganlariga uzr soʻrashi; nutq mavzuiga doir boʻlmagan savollarga javob bermasligi; tinglovchilar nafsoniyatiga tegmasligi, turli nooʻrin xatti-harakatlarga yoʻl qoʻymasligi lozim.

Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy madaniyati, fikrlash madaniyati, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til meʼyoridir.

Nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol taʼsir koʻrsatish maqsadida obyektiv til meʼyorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, tamoyillari va boshqalarda oʻrganishdir.

Zamonaviy nutq madaniyati nazariy va amaliy fan boʻlib, u til amaliyotiga taʼsir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va tilshunoslik boʻlimlarining yutuqlari hamda xulosalarini umumlashtiradi.

Nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli sifatida e'tirof etiladi va o'zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuqlari va an'analarini mustahkamlaydi hamda boyitadi.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan-texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, TV va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega.

XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan.

Alisher Navoiy hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa, keyinchalik Bobur, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy kabi shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr nutq madaniyati o'z ifodasini topgan. "Yaxshi so'z – jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Oldiga kelganni yemak – hayvonning ishi, og'ziga kelganni demak – nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga azaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Nutq odobi – nutqiy muloqot qoidalari, tamoyillari va shakllarining yig'indisi, muomala madaniyati sinonimi, ijtimoiy faoliyat sohalari bilan bog'liq madaniy me'yorlar majmui.

Nutq odobi qator talablarga javob berishi kerak. Ijobiy natijaga yo'nalganlik, nizo va bahsli holatlarni yechishga intilish, kelishish, bitimga erishishga harakat qilish nutq odobining ijobiy uslubidir.

Nutq odobiga rioya qilmaslik salbiy jihat bo'lib, bunday muloqot nizoga, tarafkashlikka, shaxslararo ziddiyatga olib kelishi mumkin. Ishga aloqador muloqotda obyektiv mezonlar asosida masalani baholash, vaziyatni xolis ekspertiza qilish, xulosani aniq ifodalash, tenglik, murosasozlik tamoyillaridan kelib chiqish, o'z shaxsiy fikriga qarshi tomonning huquqini tan olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu jarayon xolislik, suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, murojaat qilishda, mulohaza yuritish va fikrni ifodalashda muloqotning umummadaniy me'yorlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Nutq odobida suhbat, muzokara, muloqotning muayyan texnologiyasi (yo'rig'i) mavjud. U tanishish, murojaat qilish, salomlashish, xayrlashishning muayyan shakli bilan bog'liq. Nutq odobining madaniy me'yorlari minnatdorchilik, tilak bildirish, kechirim so'rash, iltimos qilish, taklif qilish, maslahat berishning tartiblangan bo'lishini nazarda tutadi. Ishga aloqador suhbatning mazmuni, aniq amaliy masalalarni muhokama qilishdan tashqari, yupatish, hamdardlik bildirish, shuningdek, mulozamat, qo'llab-quvvatlash, qo'shilmaslik usullarini ham odob doirasida ifoda etish va bayon qilish muhim o'rin tutadi. Yosh avlodda nutq odobini tarbiyalash bugungi kundagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya sohasidagi dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. -T.: O'zbekiston, 2020-y. - B 34, 20-29- betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-may, PQ-4312-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi".2017-y. 7-fevral, PF-4947 sonli qarori.
4. Babayeva /Nutq o'qitirish nazaryasi va metodikasi // Toshkent. 2018. -B. 107.
5. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi"-Toshkent:Faylasuflar. 2013.-B. 60-295